

## O'ZBEK TILSHUNOSLIGIDA UYUSHGAN KESIM

**Shodmonov Muhammadsodiq Navruz o'g'li**

*Alfraganus universiteti Filologiya fakulteti 3-bosqich talabasi*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada o'zbek tilida uyushgan kesimning tuzilishi, semantik xususiyatlari hamda boshqa uyushiq bo'laklardan farqli jihatlari tahlil qilingan. Maqolada o'zbek tili sintaksisidagi gap bo'laklarining tizimini izchil ko'rib chiqib, ayniqsa, uyushgan kesimning shakllanish mexanizmini, uning nutqdagi o'rni va uslubiy ahamiyati yoritilgan. Maqolada uyushgan kesimning kesimlik qo'shimchalari bilan bog'liq grammatik holatlari, uyushtiruvchi ohangning roli va sodda hamda qo'shma gaplar o'rtasidagi farqlar misollar asosida izohlanadi. Shuningdek, uyushgan kesimning turli so'z turkumlari bilan ifodalanish imkoniyatlari ham tahlil qilinadi*

**Kalit so'zlar:** *O'zbek tili, uyushish, bo'lak, uyushgan bo'lak, uyushgan kesim, so'z turkumi*

**Abstract:** *This article analyzes the structure and semantic characteristics of coordinated predicates in the Uzbek language, as well as their distinctive features compared to other coordinated sentence elements. The paper systematically examines the system of sentence components in Uzbek syntax, with a particular focus on the formation mechanism, functional role, and stylistic significance of coordinated predicates in speech. The grammatical features related to predicate markers, the role of coordinating intonation, and the distinctions between simple and compound sentences are explained through illustrative examples. In addition, the article discusses the possibilities of expressing coordinated predicates through different parts of speech.*

**Keywords:** *Uzbek language, coordination, sentence element, coordinated element, coordinated predicate, part of speech.*

**Kirish.** O'zbek tili sintaksisining zamonaviy tadqiqotlarida gap tarkibining murakkablashuvi, jumladan uyushgan bo'laklarning o'rni alohida ilmiy e'tibor markazida turibdi. Ayniqsa, uyushgan kesim hodisasini chuqur o'rganish gapning mazmuniy yaxlitligi, ohang tizimi va harakatlarning izchilligini aniqlashda muhim ahamiyatga ega. Shu boisdan, uyushgan kesimlarning tuzilishi va semantik xususiyatlarini o'rganish o'zbek tilshunosligi uchun dolzarb masalalardan biridir.

Uyushgan kesimga to'xtalishdan oldin gap bo'laklari haqida ma'lumotlarga ega bo'laylik. Gap bo'laklari gapning uzviy qismi sifatida maydonga kelgan sintaktik kategoriyadir. So'zlar gapda grammatik-semantik jihatdan mustaqil funktsiya ifodalab,

muayyan so'roqqa javob bo'lib kelgandagina, gap bo'lagi sanaladi<sup>7</sup>. Ayrim bo'laklar gap qurilishida markaziy o'rinni egallaydi. Bu bo'laklar gap qurilishidan chiqarib tashlansa, gap shakliy tomondan ham, mazmun tomondan ham o'z xususiyatini yo'qotadi. Ayrim bo'laklar esa gap qurilishida yetakchi rol o'ynamaydi. Ular gap qurilishida ishtirok etib, gapning axborot hajmini kengaytiradi.<sup>8</sup>

Shunga muvofiq, gap bo'laklari ikki darajaga bo'linadi:

1. Bosh bo'laklar: ega va kesim.
2. Ikkinchi darajali bo'laklar: aniqllovchi, to'ldiruvchi, hol.

Ba'zi gaplarda bir xil bo'laklar birdan ortiq bo'lib, uyushib keladi. Bu turdagi bir xillik tug'diradigan bunday bo'laklar uyushiq bo'lak sanaladi. Shunday bo'lakka ega bo'lgan gap uyushiq bo'lakli gap sanaladi.<sup>9</sup> Uyushiq bo'laklar ko'pincha bir xil so'z turkumi bilan ifodalanib, bir xil so'roqqa javob bo'ladi. Ular birlashtiruvchi, ajratuvchi, sanash, chog'ishtirish intonatsiyasi bilan, shuningdek teng bog'lovchilar yordamida o'zaro bog'lanadi. Turli tushunchalarni anglatuvchi so'zlar bilan ifodalangan bo'laklar bir xil vazifani bajarib, bir xil so'roqqa javob bo'lib kelsad-da, uyushiq bo'lak sanalmaydi.<sup>10</sup> Uyushiq kesimning o'ziga xos xususiyati. Uyushgan ega, hol, to'ldiruvchi va aniqllovchida tegishli grammatik shakl har bir so'zshaklda alohida-alohida mavjud bo'lishi ham, faqat oxirgisida bo'lib, oldingilarida bo'lmasligi ham mumkin. Biroq uyushgan kesimlarda kesimlik shakllari bilan faqat oxirgi kesim shakllangan, boshqalari esa bu qo'shimchani olmagan bo'ladi:

1. Bizning yoshlar dono va zukkodirlar.
2. Do'kondorlar molini maqtab va xaridorlarni chorlab turardilar.
3. Voqea sodir bo'lgan joyga zudlik bilan borishimiz va masalaga oydinlik kiritishimiz lozim.

So'z kesimlik ko'rsatkichi bilan shakllangan va kesimlik sintaktik pozitsiyasini egallagan bo'lsa, u alohida hukm va tugal ma'no ifodalaydi hamda gap hosil qiladi. Yuqorida keltirilgan gapda ham uyushgan kesimning barchasi (Pm) ko'rsatkichi bilan shakllantirilganda, ularning har biri alohida-alohida gapni hosil qiladi va natijada qo'shma gap vujudga keladi.

Qiyoslang: 1. Siz a'lochi va jamoatchi kishisiz (uyushiq kesimli gap) - Siz a'lochisiz va jamoatchisiz (qo'shma gap). 2. U vaqtlarda otam kosib, onam tikuvchi edi (uyushgan sodda gap) - U vaqtlarda otam kosib edi va onasi tikuvchi edi (qo'shma gap).

<sup>7</sup> G'.Abdurahmonov, A.sulaymonov, X.Xoliyorov, J.Omonturdiyev Hozirgi o'zbek adabiy tili sintaksis O'qituvchi nashriyoti T – 1979 B – 38

<sup>8</sup> Abduvohitov Eldorbek Gap bo'laklarning darajalanishi Resarch Focus Uzbekistan wolume 2 issue 6 2023 B – 111

<sup>9</sup> G'.G'ulomov, M.Asqarova Hozirgi o'zbek adabiy tili sintaksis O'qituvchi nashriyoti T – 1965 B – 145

<sup>10</sup> G'.Abdurahmonov, A.sulaymonov, X.Xoliyorov, J.Omonturdiyev Hozirgi o'zbek adabiy tili sintaksis O'qituvchi nashriyoti T – 1979 B – 86

Ikkinchi gapning har bir kesimini (Pm) bilan to'la shakllantirib, qo'shma gap tarzida qo'llash uslubiy g'alizlikni keltirib chiqaradi. Shu bois ushbu o'rinda qo'shma gap emas, balki uyushiq kesimli sodda gapni ishlatish o'ng'ay. Uyushiq kesimning har xil so'z turkumi bilan ifodalanishi ham uchraydigan hodisa. Bu ot va olmoshda mavjud: Taniganim, bilganim sen va Halimdir. Biroq fe'l va boshqa turkum so'zi uyushiq kesim hosil qila olmaydi. Chunki ot va fe'l boshqacha va qolgan turkumlar boshqacha tuslanishga ega bo'ladi: Itingdurman va bo'zlagaydirman. Bu gapda kesimlik ko'rsatkichlarini ikkala so'zshakl uchun bitta qilib bo'lmaydi: Itingdur va bo'zlagaydirman kabi.

Uyushiq kesimlarning oldin turgani [-i(b)] shaklli ravishdosh bilan ifodalanganda, hol bilan monand bo'lib qoladi: 1. U ko'rib baqirib yubordi. 2. U tanib, bilib, so'ray boshladi. Har ikkala qo'llanishda ham fe'l so'zshakllar bir-biriga o'xshaydi. Biroq gaplardan birinchisida fe'l hol (ko'rib) va kesim. (baqirib yubordi) vazifasida. Keyingi gapda esa uyushiq kesim mavjud. Biroq birinchi gapda uyushiqlikning zaruriy belgisi - uyushtiruvchi ohang mavjud emas.<sup>11</sup>

**Xulosa.** O'zbek tili sintaksisida uyushgan kesim hodisasi gapning mazmuniiy va grammatik yaxlitligini ta'minlovchi muhim sintaktik birlik sifatida alohida ahamiyat kasb etadi. Tadqiqot davomida aniqlanishicha, uyushgan kesimlar gapdagi fikrni ifodaviy jihatdan boyitadi, ohang va grammatik shakllar uyg'unligini ta'minlaydi hamda nutqda tabiiylik yaratadi. Uyushgan kesimlarning shakllanish mexanizmi, ularning sodda va qo'shma gaplar o'rtasidagi farqlari, shuningdek, turli so'z turkumlari bilan ifodalanish imkoniyatlari tahlil qilindi. Natijada, uyushgan kesimlarning o'zbek tili sintaksisidagi o'rni, ularning uslubiy ahamiyati va nutq madaniyatidagi roli ilmiy asosda yoritildi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. G'.Abdurahmonov, A.sulaymonov, X.Xoliyorov, J.Omonturdiyev Hozirgi o'zbek adabiy tili sintaksis O'qituvchi nashriyoti T – 1979
2. Abduvohitov Eldorbek Gap bo'laklklarining darajalanishi Resarch Focus Uzbekistan wolume 2 issue 6 2023
3. G'.G'ulomov, M.Asqarova Hozirgi o'zbek adabiy tili sintaksis O'qituvchi nashriyoti T – 1965
4. R.Sayfullayeva, B.Mengliyev, G.Boqiyeva, M.Qurbonova, Z.Yunusova, M.Abuzalova Hozirgi o'zbek adabiy Till «Fan va texnologiya nashriyoti T – 2009

---

1. R.Sayfullayeva, B.Mengliyev, G.Boqiyeva, M.Qurbonova, Z.Yunusova, M.Abuzalova Hozirgi o'zbek adabiy Till «Fan va texnologiya nashriyoti T – 2009 B – 373-374